



MINTAQADA QISHLOQ XO'JALIGIDA MAHSULOTLARINI YETISHTIRISHDA EKOLOGIK MUAMMOLAR VA YECHIMLARINING IQTISODIY TAHLILI

Dotsent Astanayev Qulmaxammat
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti
ORCID: 0009-0001-8388-4854
as.kulmaxammat@mail.ru

Annotatsiya. O'zbekiston qishloq xo'jaligi iqtisodiy salohiyatining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, respublikaning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Biroq, ekologik va iqtisodiy muammolar ushbu sohaning yanada rivojlanishiga to'siq bo'lmoqda. Keyingi yillarda mamlakatimiz qishloq xo'jaligini isloh qilish, xususan, sohada davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, bozor munosabatlarini keng joriy qilish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va sotuvchi subyektlar o'rtasidagi munosabatlarning huquqiy asosini mustahkamlash, sohaga investitsiyalarni jalb qilish, resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish hamda qishloq ho'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarni zamonaviy texnikalar bilan ta'minlash borasida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, agrosanoatni subklasterlashtirish, qishloq xo'jaligi mahsulotlari, klasterlashtirish, agrosanoat klasterlari, fermer xo'jaliklari, korxonalar, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati, aholi salomatligini ta'minlash, ekologik holat, chiqindilar.

ЭКОНОМИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ ПРОБЛЕМ И ПУТЕЙ ИХ РЕШЕНИЯ ПРИ ВЫРАЩИВАНИИ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННОЙ ПРОДУКЦИИ В РЕГИОНЕ

Доцент Астанаев Кулмахаммат
Университет экономики и педагогики

Аннотация. Сельское хозяйство является одним из основных секторов экономического потенциала Узбекистана, играя важную роль в обеспечении продовольственной безопасности и повышении экспортного потенциала республики. Однако экологические и экономические проблемы препятствуют дальнейшему развитию этого сектора. В последние годы ведется определенная работа по реформированию агропромышленного сектора нашей страны, в частности, по совершенствованию системы государственного управления в секторе, широкому внедрению рыночных отношений, укреплению правовой базы отношений между субъектами, выращивающими, перерабатывающими и реализующими сельскохозяйственную продукцию, привлечению инвестиций в сектор, внедрению ресурсосберегающих технологий и обеспечению сельскохозяйственных производителей современным оборудованием.

Ключевые слова: сельское хозяйство, агропромышленные субкластеры, сельскохозяйственная продукция, кластеризация, агропромышленные кластеры, фермы, предприятия, пищевая и текстильная промышленность, общественное здравоохранение, состояние окружающей среды, отходы.

ECONOMIC ANALYSIS OF ENVIRONMENTAL PROBLEMS AND THEIR SOLUTIONS IN AGRICULTURAL PRODUCTION IN THE REGION

Associate Professor **Astanayev Kulmaxammat**
University of Economics and Pedagogy

Abstract. Agriculture is one of the main sectors of the economic potential of Uzbekistan, playing an important role in ensuring food security and increasing the export potential of the republic. However, environmental and economic problems are hindering the further development of this sector. In recent years, certain work has been carried out to reform the agricultural sector of our country, in particular, to improve the system of state administration in the sector, to widely introduce market relations, to strengthen the legal framework for relations between entities that grow, process and sell agricultural products, to attract investments to the sector, to introduce resource-saving technologies, and to provide agricultural producers with modern equipment.

Keywords: agriculture, agro-industrial subclustering, agricultural products, clustering, agro-industrial clusters, farms, enterprises, food and textile industry, public health, environmental status, waste.

Kirish.

Mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshiruvchi manba sifatida hududning iqtisodiyot tarmoqlarida faol mexanizmning optimallik mezonlariga mos ravishda joriy qilinganligidir. O'zbekiston Respublikasining iqtisodiyot tarmoqlarida joriy etilgan mexanizmlarning mohiyatan umumlashgan qismi sifatida klasterlashtirish amaliyoti bilan chambarchas bog'langanligidir (Qaror, 2015). Bizningcha klasterlashtirish amaliyoti iqtisodiy va tashkiliy mexanizmlarning ma'lum bir tarmoq yoki tarmoqosti xo'jalik subyektlari faoliyatida hududlararo hamda tarmoqlararo integratsiyalashuvini kuchli rag'batlantiruvchi omil sifatida asosiylik kasb etadi. Iqtisodiy resurslarni taqsimlash, ishlab chiqarish va iste'mol qilishni boshqarishning qoidalari, institutlari va jarayonlarini o'z ichiga oladi.

Adabiyotlar sharhi.

Agrosanoat klasterlarini subklasterlar asosida rivojlantirishda iqtisodiy potensialini baholashdan ilmiy nuqtaiy nazardan faoliyat sifatida, jarayon sifatida, omil sifatida va boshqa xususiyatiga ko'ra ta'riflash mumkin. O'zbekistonlik olimlarning. Рахимов, Махматкулов, Рахимов, (2021), Jo'rayev, Ochilov, Rakhimov, & Doliyev, (2023) (2023)) Agrosanoat klasterlashtirishga bergan ta'riflari keng manbalarda keltirilgan bo'lib, tadqiqotchilar ilmiy ishlarida ulardan foydalanishadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Viloyatlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlarning eng ko'p qismi Qashqadaryo (13,1 foiz), Toshkent (10,9 foiz) va Buxoro (9,3 foiz) viloyatlarida faoliyat ko'rsatmoqda.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq xo'jaligida asosiy kapitalga kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmi 14 trln so'mni, Respublikada jami asosiy kapitalga kiritilgan kiritilgan xorijiy investitsiya va kreditlar hajmidagi ulishi 6,0 foizni tashkil etdi. Joriy yil yanvar-sentabr oylarida jami 1,9 milliondan ortiq (rejaga nisbatan 104,2%) ish o'rinlari yaratilib, aholining doimiy va mavsumiy bandligi ta'minlandi. Jumladan, agroklastarlarda 14,3 ming, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi korxonalarida 284,8 ming, takroriy ekinga yer ajratish hisobiga 80,4 ming, tomorqada 370 ming, pillachilikda 1

mln hamda suv va o'rmon xo'jaliklarida 23 ming nafar fuqarolar band qilindi. 2024-yil yanvar-sentabr oylarida hududlar bo'yicha yaratilgan ish o'rinlarining eng yuqori hajmi Qashqadaryo (402,1 ming ta), Surxondaryo (238,2 ming ta), Andijon (234,7 ming ta), Farg'ona (185,5 ming ta), Xorazm (139,8 ming ta) viloyatlarida qayd etildi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligini 2020–2030 yillarda rivojlantirish strategiyasi loyihasi amalga oshirilmoqda. Majkur loyihada bir qator revolyutsion nizomlarni o'z ichiga olgan bo'lib, Strategiya qabul qilindi so'ng yillarda amalga oshirilayotgan muhim sohasining ko'rinishini tubdan o'zgartirgani hayotiy zarurat hisoblanadi. Bugungi kunda qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati O'zbekistonning iqtisodiyoti va aholisining farovonligi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Ayni damda, mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini yetishtirish uchun bir qator muammlolarning mavjudligi kuzatilmoqda. Respublikamizda malakali kadrlarning yetishmasligi, qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash yo'nalishining rivojlanmaganligi, tarmoq yo'nalishlari bo'yicha xomaysho va materiallarning yetishmovchiligining mavjudligi bu boradagi dolzarb muammolardan sanaladi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun qishloq xo'jaligi maktablarni joriy etish va fermerlar, tadbirkorlarni o'qitish orqali malakali kadrlar yetishib chiqadi va qishloq xo'jaligi rivojlanishiga olib keladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishmovchiligi hali hamon mamlakatimizda muhim masalalardan biri bo'lib kelmoqda. 2022-yil hosili uchun mamlakatimizda 330,5 ming gektardan ortiq maydonlarga dukkakli va don mahsulotlari ekilgan bo'lib, shundan 35,8 ming gektari loviya, mahsuloti ekilgan. Bu ko'rsatgich o'tgan yilga nisbatan 5,9 ming gektar ko'p. Loviya asosi ekin sifatida 5,1 ming gektarga takroriy ekin sifatida esa 24,5 ming gektar maydonlarga hamda 6,1 ming gektar bog' qatorlari oralig'iga ekilgan.

O'zbekistonda ekologik muammolar turli omillar mavjud, jumladan, qishloq xo'jaligi, sanoat rivojlanishi va suv resurslarining noto'g'ri boshqarilishi natijasida yuzaga kelgan. Asosiy ekologik muammolar quydagilardan iborat; Orol dengizining qurishi, Havoning ifloslanishi, Suv resurslarining tanqisligi va ifloslanishi, Tuproqning sho'rlanishi, Chiqindilar muammosi va shu kabi ekologik muamollarning ko'payib borishi ekologik tizimning buzilishiga olib kelmoqda.

Mamlakatimizda atrof-muhitni muhofaza qilish, aholi salomatligini ta'minlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, sanitariya va ekologik holatni yaxshilash borasida izchil ishlar olib borilmoqda. Ishlab chiqarish sohaslarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash va qayta jihozlash natijasida atmosferaga chiqarilayotgan zararli moddalarning miqdori 2,1-martaga, oqava suvlarning tashlanishi 2-martaga kamaydi.

Shu bilan birga, bu borada o'tkazilgan tahlil natijalari atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat funksiyalarini amalga oshirishda kompleks yondashuv va strategik rejalashtirishning mavjud emasligi, shuningdek, qo'yilgan vazifalarni samarali bajarish uchun tabiatni muhofaza qilish organining vakolatlari yetarli emasligidan dalolat beradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarini belgilash, tabiatni muhofaza qilish sohasidagi qonun hujjatlari buzilishlari profilaktikasi, ularni aniqlash va oldini olishning samarali mexanizmlarini joriy etish, respublika aholi punktlarining sanitariya va ekologik holati uchun davlat organlari, xo'jalik yurituvchi subyektlar rahbarlari va fuqarolarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Qo'shma qarori bilan tasdiqlangan "To'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi qonunlarda tizimlashtirilishi va unifikatsiya qilinishi lozim bo'lgan qonun hujjatlarini qayta ko'rib chiqish bo'yicha "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan yangi tahrirdagi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasida o'z aksini topgan.

Mazkur hujjat chiqindilar bo'yicha muammolarni hal etishda amalga oshiriladigan ishlarining strategik yo'nalishi va muvofiqlashtirishning asosi bo'lib xizmat qiladi. Bu jarayonda asosiy e'tibor avvalo, chiqindilarni boshqarish sohasidagi davlat siyosatini va harakatlar samaradorligini oshirishga va ularni qisqartirishga, imkon darajasida ulardan qayta foydalanish hamda ikkilamchi qayta ishlashga qaratilgan.

Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish hamda chiqindilarga oid ekologik siyosat yuritish maqsadida amaldagi bir qancha normalarning eskirgani sababli yangi tahrirdagi "Chiqindilar to'g'risida"gi qonun loyihasi ishlab chiqilmoqda. Qonunning asosiy vazifasi chiqindilarning fuqarolar hayotiga va sog'lig'iga, atrof-muhitga zararli ta'sirining oldini olish hamda chiqindilar hosil bo'lishini kamaytirishdan iboratdir. Shuningdek, qonun loyihasida chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish borasida aniq vakolatli davlat organini belgilash ko'zda tutilmoqda.

O'zbekistonda kechayotgan tub islohotlar, jamiyatimiz hayotidagi demokratik o'zgarishlar, erishilgan natijalar nafaqat mamlakatimiz hududida balki qo'shni davlatlardagi xalqlarda ham katta qiziqish uyg'otib, mintaqaviy jarayonlarga katta ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Markaziy va Janubiy Osiyo o'rtasida savdo-iqtisodiy, transport, gumanitar, turizm va boshqa sohalarda hamkorlikni mustahkamlash bo'yicha O'zbekiston Prezidenti tomonidan bir qator muhim tashabbuslar ilgari surilmoqda. Ushbu tashabbuslar va amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy-siyosiy ahamiyati bilan ham dolzarb ahamiyat kasb, mintaqada tinchlikni ta'minlash va aholi farovonligini yaxshilashga xizmat qilmoqda.

Xulosa va takliflar.

Mamlakatimizning tashqi iqtisodiy sohasida tashqi savdo hajmi va eksportni tizimli ravishda jadal oshirishga qaratilgan tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi, xususan, valyuta siyosati liberallashtirildi, ma'muriy to'siqlar bartaraf etildi, eksport qilinadigan mevasabzavot mahsulotlari uchun narxlarni shakllantirish va to'lovning bozor mexanizmi joriy qilindi. Shu bilan birga, amalga oshirilayotgan tadbirlarning samaradorligi ustidan muntazam ravishda olib borilayotgan monitoring tashqi savdo va eksportning umumiy ijobiy dinamikasiga qaramasdan ular hajmlarining real o'sish sur'atlari iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sur'atlariga muvofiq emasligini ko'rsatmoqda. Birinchi navbatda raqobatbardosh afzalliklarga ega bo'lgan tarmoqlarda bir qator tizimli muammolar va kamchiliklarning saqlanib qolayotganligi eksport hajmlarining salmoqli o'sishini ta'minlashga to'sqinlik qilmoqda.

Tovarlar va xizmatlar eksporti hajmini tubdan oshirish, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish, tashqi savdo muvozanatini ta'minlash va valyuta tushumlarini ko'paytirish maqsadida 2018 yil 20 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Eksportga ko'maklashish va uni rag'batlantirishni kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori qabul qilindi.

Tadbirkorlik sub'ektlariga quyidagilarda har tomonlama ko'maklashish asosiy vazifalari etib belgilandi: yuqori qo'shilgan qiymatga ega eksportbop raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirish, xizmatlar (turistik, tibbiy, ta'lim, transport, qurilish va boshqalar) eksporti hajmini keskin oshirish hamda ularni ko'rsatish uchun tegishli infratuzilmani jadal barpo etish; o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni etkazib berishda hamkorlarni izlash hamda tashkilotlar va korxonalar bilan shartnomalar tuzish.

Adabiyotlar/Literaturalar/References:

Jo'rayev, F.D., Ochilov, M.A., Rakhimov, A.M., & Doliyev, S.Q. (2023). Algorithms for improving models of optimal control for multi-parametric technological processes based on artificial intelligence. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 460, p. 04013). EDP Sciences.

Qaror (2015) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 29 dekabrda "2016-2020 yillar davrida qishloq xo'jaligini yanada isloh qilish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2460-sonli Qarori.

Qaror (2021) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 24-iyuldagi №458-son- Qishloq xo'jaligi birlashmalarining a'zolari, meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari va tadbirkorlik subyektlariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko'chatlar (pakana va yarim pakana) xo'raki, kishmishbop va sanoatbop tok ko'chatlari hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiya ajratish to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi Qarori.

Рахимов, А.Н., Махматкулов, Г.К., и Рахимов, А.М. (2021). Построение эконометрических моделей развития сферы услуг для населения региона и их прогнозирование. *Американский журнал прикладных наук*, 3 (02), 21–48.